

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM

*Obidova Sevara Zoxid qizi**O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi*

Annotatsiya: O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam va o'zbek tili leksikasing boyish manbalari

Kirish so'z: Umumturkiy, o'zlashgan so'zlar, arab tilidan o'zlashgan so'zlar, tojik so'zlar, rus tillaridan o'zlashgan so'zlar

O'zbek tili o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini o'z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko'ra, o'z qatlam negizlari asosida yangi so'zlar yasaldi, mavjud so'z ma'nolari kengaytirildi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha vazifalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalarida turli davrlarda, ehtiyojga ko'ra, so'zlar qabul qilindi.

O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O'zbek tili lug'at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o'ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi qonuniy holdir. Bunday munosabat aloqada bo'lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug'at tarkibida ma'lum izlarni qoldirishi mumkin.¹O'zbek xalqi qardosh bo'lmagan tojiklar bilan qadimdan yaqin munosabatda bo'ldi. Bazi tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bu omillar o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi.

1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkiy xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir. Oltoy

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilshunosligida-o-zlashma-so-zlarning-rol-i-va-ahamiyati/viewer>

tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: o'zbek, qozoq, uyg'ur, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qo'miq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklaritillari mavjud.

Umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umumturkiy so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg'u bildiradigan so'zlar kiradi: Masalan: kishi, oyoq, qo'l, bosh, ko'z, qosh, qizil, ko'k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to'rt, o'n, kel, tur, yot, o'tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.²

2. O'zbekcha so'zlar. O'zbek tili muhitida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar o'zbekcha so'zlar deyiladi. O'zbekcha so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida, o'z qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tildagi so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilingan so'zlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qo'l+lan+ma, o't+kaz+gich, tur+g'un, bola+larcha.

2. Boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilingan so'zlar: a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: mard+lik, jang+chi, do'st+lik, pul+siz; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li; v) ruscha-internotsional so'zlardan yasalgan so'zlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+m, dastur+chi:

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalarni o'z va o'zlashgan so'zlarga qo'shish orqali hosil qilingan so'zlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olinma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin:

1. Tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, kasb, qassob,

² <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/2111/653>

san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimog`, idora kabi.

3. Ruscha-internotsional so`zlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O`zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining o`zbek tiliga ta`siri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko`plab so`zlar o`zlashdi.

O`zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) so`z kirishi ikki tarixiy davrni o`z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo`lgan davr.

2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan so`zlar ikki yo`l bilan o`zlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan og`zaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi. 2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), po`shta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi. Rus tili orqali kirgan so`zlarning ba`zilari dunyodagi ko`pgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli o`zgartirilmay ishlatiladigan xalqaro so`zlardir. Ular, odatda, internotsional (baynalminal) so`zlar deb yuritiladi. O`zbek tiliga o`zlashgan internotsional so`zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: судья, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.

3. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

4. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.

5. Frantsuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi. Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so`zlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xo`jaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, san'at, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Ozbek tili qadimda bir qator qardosh bo`lmagan boshqa sistemadagi tillar bilan ham aloqada bo`lgan. Bunday tillar fors-tojik va arab tillaridir.

Shuningdek, o`zbek tili o`z rivojining milliy til va ijtimoiy millat tili davriga kelib rus tili bilan aloqa va hamkorlikka kirishdi va bu jarayon davom etmoqda.

O`zbek tilining chet tillar bilan aloqasi turli daraja va sifatli ko`rinishlarga ega.

O`zbek tili aloqada bo`lgan ba`zi tillar o`zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan.

Jumladan, hind, qadimgi grek tillaridan o`zbek tiliga sanoqli so`zlarga kirgan.

Masalan:

Hind tilidan: but, ko`yvol, lak, nil, nilufal, baraqman, barcha arg`anun, bibi, paysa, Chandan, chaqmoq, tovus, chit.

Greklardan: nomus, ayfun, faylasuf, bilur, buqalamun, dirham, zumrad, daryok, iqlim, marvarid, marmar.

Tillarining o'zaro aloqasi va hamkorligi ko'p holda bu tillar orasida so'z almashishga, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishiga sabab bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi uchun sharoit kerak. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonmayon yashashi, hududiy yaqinlashishi emas, balki o'zro ta'siri, hamkorligi va bu asosda yuzaga keluvchi ikkitillilik hodisasidir. O'zbek tili tarixda turkiy tillar oilasiga mansub qardosh tillar bilan, chunonchi, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, uyg'ur, turkman, ozarbayjon tillari bilan aloqada bo'lgan. Bunday aloqa hozir ham davom etmoqda. Mana shunday aloqa tufayli O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida o'zbek va qirg'iz tillarida, o'zbek va qozoq tilida, turkman va o'zbek tilida, tatar va o'zbek tilida, qoraqalpoq va o'zbek tillarida parallel gaplasha oluvchi ikki tilli aholi mavjud. Bunday genetik jihatdan aloqador bo'lgan ikki qardosh tilda gaplasha olish O'zbekistondayashovchi aholi orasida qadimdan mavjuddir.

Xalqaro munosabatlar taraqqiyoti, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar va ularning samaralari ana shu xalqlarning tillari leksikasida namoyon bo'ladi. Bunday hodisalarning ahamiyati va rolga bag'ishlangan son-sanoqsiz tadqiqotlar mavjud. Lekin, shunga qaramay, bu boradagi bahs va munozaralar barham topmagan. Chunki so'z o'zlashtirish masalasida tilshunoslar mushtarak va qat'iy to'xtamga kelganlaricha yo'q. Boshqa davlatlar bilan aloqalar kengayaverar ekan, o'zbek tilining leksik lug'at boyligi ham baynalminal so'zlar hisobiga kengayib boraveradi.

Ma'lumki, leksika va uning har xil qatlamlari o'z xarakteriga ko'ra turlicha "tovlanib", o'ziga xos lisoniy qiymat kasb etadi. Bu narsa leksikaning o'ziga xos murakkab lisoniy sath ekanligidan dalolat beradi. Har bir xalq va uning tilining boshqa xalqlar va ularning tili bilan o'zaro aloqadorligi ham leksikada aks etadi. Shu bois til leksikasini ko'zguga o'xshatish joiz bo'ladi. Ko'zgu unga qaratilgan har bir narsaning aksini namoyish etgani kabi, til leksikasi ham ijtimoiy va ruhiy olamning barcha xususiyatlarini namoyish qiladi. Shu sabab ham jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy olamidagi har bir yangilik, har bir o'zgarish eng avvalo lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarni, xalq bosib o'tgan tarixiy yo'lning izlarini o'zida aks ettiradi. Ayni paytda muayyan tilning lug'at tarkibini tadqiq etishda chet til elementlarining mavqei va amal qilish doirasi, o'ziga xos xususiyatlarini ana shu nuqtayi nazardan tahlil etish zaruratini paydo qiladi. Shuni aytish kerakki, lug'at tarkibining ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirishida o'ziga xos qonuniyatlar amal qiladi. Negaki, o'zga xalqlar bilan madaniy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar ham tilda, ham uning leksikasida aks etadi. Bunday jarayon til lug'at tarkibida chet so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Bu so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibidagi o'zlashgan boshqa so'zlar

qatlamida o'zining boyligi va ifodaliligi bilan ajralib turadi. Hazrat Navoiy arab tilining bu xususiyati haqida "Muhakamatul lug'atayn" asarida shunday deydi: " Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at tazyini bila mo'jizatirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qdur".³

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/2111/653>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilshunosligida-o-zlashma-so-zlarning-rol-i-va-ahamiyati/viewer>
3. Jomonov R. So'z o'zlashtirishdagi asosiy lisoniy omillar . O'zbek tili va adabiyoti, 2014. N05
4. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992. 120 - 126- betlar.
5. SH.SHOabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi. 1980.118-120- betlar.
6. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. O'qituvchi. 1981. 251-258- betlar.
7. SH.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.SHukurov. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. Toshkent. O'qituvchi. 1984.

³ Alisher Navoiy, "Muhakamatul lug'atayn"